Isroilov Bohodir Ibragimovich, Muhammadiev Ramz Zoirjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING ROLI	952
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ.....	957
Журахонов Шержахон Зафаржонович	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMI, RIVOJLANISHINING TARIXIY EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI	962
Raxmonov Azizjon Sadullayevich	
SOLIQQA TORTILADIGAN KO'CHMAS MULKARNI BAHOLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	970
Musalimov Shuxrat Isamuxamedovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH BILAN BOG'LIQ BO'LGAN MUAMMOLAR.....	974
Yuldashev Iskandar Abdurashidovich	
BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASI VA UNING QURILISH SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK(DXSH)NI BOSHQARISHDAGI O'RNI	980
Rasulov Shuxrat G'ayratovich	
"YASHIL IQTISODIYOT", EKOLOGIK BARQARORLIK VA EKOLOGIK MADANIYAT	984
Ibragimova Saodat Abdumom'inovna	



EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING INSTITUTIONAL MEXANIZMLARI	990
Mirzayeva Nilufar Sabirjanovna	
IQTISODIY RIVOJLANISHDA INNOVATSIYALARNING NAZARIY ASOSLARI VA AHAMIYATI.....	995
Davlatova Ozoda Olmos qizi	



IQTISODIY RIVOJLANISHDA INNOVATSIYALARNING NAZARIY ASOSLARI VA AHAMIYATI

Davlatova Ozoda Olmos qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch dokdoranti

ORCID: 0009-0000-9316-6859

Email: ozodaavganova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada iqtisodiy rivojlanish jarayonida innovatsiyalarning tutgan o'rnini, ularning nazariy asoslari hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyati tadqiq etilgan. Innovatsiya tushunchasining mazmuni, uning turlari va shakllari iqtisodiy nazariyalar doirasida tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsiyalarni joriy etish orqali milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish masalalari yoritilgan. Maqolada innovatsion faoliyatni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar hamda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy rivojlanish, raqamli texnologiyalar, raqobatbardoshlik, bank sektori, masofadan bank xizmatlari, samaradorlik.

Abstract. The article examines the role of innovations in the process of economic development, their theoretical foundations, and their importance in ensuring economic growth. The content of the concept of innovation, as well as its types and forms, is analyzed within the framework of economic theories. In addition, the paper highlights issues related to enhancing the competitiveness of the national economy, increasing production efficiency, and achieving sustainable economic growth through the implementation of innovations. The factors influencing the development of innovative activity and the economic mechanisms for supporting innovations are also scientifically substantiated.

Key words: economic development, digital technologies, competitiveness, banking sector, remote banking services, efficiency.

Аннотация. В статье исследуется роль инноваций в процессе экономического развития, их теоретические основы и значение в обеспечении экономического роста. В рамках экономических теорий проанализированы содержание понятия инноваций, а также их виды и формы. Кроме того, освещены вопросы повышения конкурентоспособности национальной экономики, роста производственной эффективности и достижения устойчивого экономического роста за счёт внедрения инноваций. В статье также научно обоснованы факторы, влияющие на развитие инновационной деятельности, и экономические механизмы поддержки инноваций.

Ключевые слова: экономическое развитие, цифровые технологии, конкурентоспособность, банковский сектор, дистанционные банковские услуги, эффективность.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining jadal sur'atlarda rivojlanishi, globallashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi hamda zamonaviy global muhitda raqobat sharoitlarining keskinlashuvi iqtisodiy rivojlanishda innovatsiyalarning rolini tubdan oshirmoqda. Bugungi kunda innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi omil, balki iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasini yangilash, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va milliy iqtisodiyotning barqarorligini mustahkamlashning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Innovatsion faoliyat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash, shuningdek, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Innovatsiyalar iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida e'tirof etilib, ularning mazmuni va mohiyati turli ilmiy maktablar va nazariy yondashuvlar doirasida keng tadqiq etilgan. Xususan, innovatsiyalar texnologik taraqqiyot, mehnat unumdorligining o'sishi va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan bank va moliya sohasida e'lon qilingan va qo'llab-quvvatlangan oxirgi innovatsiyalar hamda tashabbuslar haqida eng dolzarb masalalar maqsad qilib belgilangan.

Prezidentimizning 2025–2030-yillar uchun moliyaviy texnologiyalar (fintech) sektorini rivojlantirish bo'yicha yangi dasturni tasdiqlashi innovatsiyalar uchun muhim poydevor hisoblanadi.

Bu strategiya doirasida:

- fintech kompaniyalar sonini 200 taga yetkazish;
- 1 milliard AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;
- Markaziy bank huzurida 50 million AQSh dollari kapital bilan venchur fondi va fintech innovatsiya hubini tashkil etish rejalashtirilgan.

Bu tashabbuslar bank va fintech startaplarini qo'llab-quvvatlaydi hamda ularning tez rivojlanishiga turtki beradi. Prezidentimiz tomonidan tasdiqlangan 2025–2030-yillarda moliyaviy texnologiyalar (fintech) sektorini rivojlantirish strategiyasi doirasida hozirga qadar quyidagi asosiy ishlar amalga oshirildi:

- fintech, raqamli to'lovlar, elektron pullar va raqamli moliyaviy xizmatlarga oid qonun hujjatlari takomillashtirildi;
- bank bo'lmagan moliya tashkilotlari (fintech kompaniyalar) faoliyatini tartibga soluvchi yangi litsenziyalash va ro'yxatdan o'tkazish mexanizmlari joriy etildi;
- "regulyator sandbox" (sinov muhiti) mexanizmi yo'lga qo'yildi, bu yangi moliyaviy texnologiyalarni xavfsiz sinovdan o'tkazish imkonini beradi.

Shu bilan birga, innovatsiyalar ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish, aholi farovonligini oshirish va iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Hozirgi sharoitda ko'plab mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish strategiyalarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini rivojlantirish hamda inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu esa innovatsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini yanada oshirib, ularni ilmiy jihatdan chuqur o'rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi iqtisodiy rivojlanishda innovatsiyalarning nazariy asoslarini har tomonlama tahlil qilish, ularning iqtisodiy o'sish va taraqqiyotga ta'sirini ilmiy nuqtayi nazardan baholash hamda innovatsion faoliyatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashdan iborat. Shuningdek, maqolada innovatsion siyosatni shakllantirish va samarali amalga oshirish orqali iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish imkoniyatlari ham ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy rivojlanish va innovatsiyalar mavzusida ko'plab olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Schumpeter¹ innovatsiyalarni iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi deb atab, ularni yangi mahsulotlar, ishlab chiqarish texnologiyalari va bozorlar orqali iqtisodiy o'zgarishlarni rag'batlantiruvchi asosiy omil sifatida ko'rsatgan. Shu bilan birga, Solow² modelida texnologik o'zgarishlar iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli manbai sifatida muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan.

So'nggi yillarda Porter³ raqobatbardoshlik nazariyasi doirasida innovatsiyalarning milliy va korporativ darajada iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi roli keng tadqiq etilgan. Shuningdek, Freeman⁴ va Lundvallning⁵ nazariy ishlari innovatsion tizimlar va ilm-fan, texnologiya hamda ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyaning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini o'rganishga qaratilgan.

Mahalliy tadqiqotlar doirasida O'zbekiston sharoitida iqtisodiy rivojlanish va innovatsion faoliyatni o'rganish bo'yicha Ismoilov⁶, Rasulov⁷ kabi olimlar innovatsiyalarni joriy etishning mamlakat iqtisodiyoti samaradorligiga ta'sirini tahlil qilgan. Ularning tadqiqotlari innovatsion siyosatni shakllantirish, ilmiy-texnikaviy kadrlarni tayyorlash va milliy iqtisodiyotda texnologik modernizatsiyani rivojlantirish zaruratini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, so'nggi ilmiy manbalarda innovatsiyalarning iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligi statistik tahlil orqali ko'rsatib berilgan, ya'ni innovatsion faoliyatni kuchaytirish mamlakatlar daromadlarini, ishlab chiqarish hajmini va raqobatbardoshlik indekslarini oshirishga xizmat qilishi aniqlangan⁸.

1 Schumpeter, J. A. *The Theory of Economic Development*. Harvard University Press, 1934.

2 Solow, R. M. "Technical Change and the Aggregate Production Function." *The Review of Economics and Statistics*, vol. 39, no. 3, 1957, pp. 312–320.

3 Porter, M. E. *The Competitive Advantage of Nations*. Free Press, 1990.

4 Freeman, C. *Technology Policy and Economic Performance: Lessons from Japan*. Pinter, 1987.

5 Lundvall, B.-Å. *National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning*. Pinter, 1992.

6 Ismoilov, A., Karimov, S., & Tursunov, B. "Innovation and Economic Growth in Uzbekistan." *Journal of Economic Studies*, vol. 5, no. 2, 2018, pp. 45–60.

7 Rasulov, D. "Technological Innovation and Sustainable Development in Uzbekistan." *Central Asian Economic Review*, vol. 8, no. 1, 2020, pp. 12–28.

8 OECD. *Innovation in the Economy: Measuring the Impact*. Organisation for Economic Co-operation and Development, 2021.



Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy rivojlanishning nazariy jihatdan asosiy omili, balki amaliy siyosat va strategiyalarni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida innovatsiyalarni rivojlantirish tizimi va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri mavzusi hali ham chuqur ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanishda innovatsiyalarni joriy etish va ularning iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganishda mavjud muammolar ilmiy jihatdan tahlil qilindi, qiyosiy usul orqali boshqa mamlakatlar tajribasi bilan solishtirildi, statistik ma'lumotlar o'rganildi hamda iqtisodiy jihatdan tahlil qilinib, innovatsion faoliyatning samaradorligi baholandi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqotga quyidagi afzalliklarni berdi: innovatsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati har tomonlama ochib berildi, milliy sharoitda ularni rivojlantirish yo'llari aniqlanib, ilmiy asosli xulosalar chiqarish imkoniyati yaratildi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari innovatsion siyosatni shakllantirish va samarali amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga ham xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, aksiyonerlik jamiyatlarida, xususan bank sektorida, innovatsiyalar iqtisodiy rivojlanish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Adabiyotlar va statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, innovatsion texnologiyalar va raqamli yechimlarni joriy qilgan banklar xizmat sifatini oshirish, mijozlar bazasini kengaytirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish bo'yicha sezilarli natijalarga erishgan.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ilg'or mamlakatlarda, masalan, Janubiy Koreya va Germaniyada, banklar onlayn banking, raqamli to'lov tizimlari va moliyaviy texnologiyalarni (FinTech) joriy etish orqali daromadlarni oshirish va operatsion xarajatlarni optimallashtirishga erishgan. Ushbu xalqaro tajribalar O'zbekiston aksiyonerlik jamiyatlari, xususan banklarida innovatsion yechimlarni samarali qo'llash uchun namunaviy asos bo'la oladi.

Milliy darajadagi tahlil shuni ko'rsatadiki, aksiyonerlik shaklidagi banklar innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali kreditlash jarayonini tezlashtirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va moliyaviy operatsiyalarni optimallashtirish imkoniyatiga ega. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, raqamli xizmatlarni kengaytirgan banklarda xizmat ko'rsatish xarajatlari taxminan 10–15% ga kamaygan va mijozlar soni 20% ga oshgan. Shu bilan birga, innovatsiyalarning yetarli darajada joriy etilmasligi banklarning raqobatbardoshligini pasaytirishi va moliyaviy samaradorlikni kamaytirishi mumkinligi aniqlangan.

Tahlil shuni ham ko'rsatadiki, aksiyonerlik jamiyatlari, xususan banklar, innovatsiyalarni faol joriy etish orqali uzoq muddatli barqaror o'sishga erishishi mumkin. Innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va moliyaviy texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga hissa qo'shadi va aksiyonerlik jamiyatlari samaradorligini oshiradi.

Empirik tahlil natijalari bank sohasida raqamli xizmatlar va innovatsiyalar joriy etilishining iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini aniq ko'rsatdi. Bu o'sish trendlari mamlakatda raqamli bank xizmatlariga bo'lgan talabning ortganini ko'rsatadi: O'zbekistonda masofadan bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni bir necha yil davomida murakkab o'sish ko'rsatgan, bu banklarning raqamli transformatsiyasi bilan bog'liq. Agrobank kabi milliy banklar ham raqamli bank xizmatlarini kengaytirish orqali mijozlar sonini oshirishda natija topmoqda, bu esa bankning raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Ushbu yangi statistik ma'lumotlar asosida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion xizmatlar joriy etilishi masofadan bank xizmatlaridan foydalanishni sezilarli darajada oshirgan. Masofadan banking foydalanuvchilar sonining o'sishi bankning iqtisodiy samaradorligini ko'rsatadi, chunki mijozlar soni o'sishi xizmat ko'rsatish darajasini oshiradi va bank daromadlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Agrobank misolida statistik o'sish grafigi bankda innovatsiyalar joriy etilishi natijasida mijozlar bazasining kengayishini ko'rsatadi, bu esa innovatsiyalar va iqtisodiy rivojlanish o'rtasida ijobiy bog'liqlikni tasdiqlaydi.

Korxonada innovatsion faoliyatning maqsadlari — bu korxonaning uzoq muddatli rivojlanishini, raqobatbardoshligini va bozor sharoitlariga moslashuvchanligini ta'minlashga qaratilgan strategik yo'nalishlardir. Raqobatbardoshlikni oshirish, mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish asosiy vazifa qilib belgilanadi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida iste'molchilar talabiga mos, yuqori sifatlil mahsulotlar yaratish, xarajatlarni kamaytirish, bozor ulushini kengaytirish, daromad va foydani ko'paytirish, texnologik yangilanishni ta'minlash, xatarlarni kamaytirish, inson kapitalini rivojlantirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash bu uning maqsadlarining asosiy qismi hisoblanadi (1-jadval).



1-jadval. Banklarda innovatsion texnologiyalarni joriy etish va samaradorlik ko'rsatkichlari (raqamlarda)⁹

Bank nomi	Raqamli xizmatlar joriy etilishi (%)	Kreditlash jarayoni o'rtacha davomiyligi (kun)	Mijozlar soni o'sishi (%)	Xizmat xarajatlarini kamayishi (%)	Raqobatbardoshlik ko'rsatkichi (1–10)
Agrobank (O'zbekiston)	80	4	20	12	8
DBS Bank (Singapur)	95	1	35	18	10
HSBC (Buyuk Britaniya)	90	2	30	15	9

Ushbu jadval real banklar — Agrobank (O'zbekiston), DBS Bank (Singapur) va HSBC (Buyuk Britaniya) misolida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ularning samaradorlikka ta'sirini ko'rsatadi. Raqamli xizmatlar joriy etilishi (%) ustuni bankning mijozlarga mobil ilova, onlayn banking va raqamli to'lov tizimlarini taqdim etish darajasini ifodalaydi. Masalan, DBS Bank 95% raqamli xizmatlarni joriy etgan bo'lib, bu ularni global raqamli transformatsiya yetakchisi sifatida ko'rsatadi. Agrobankda esa raqamli xizmatlar 80% ga joriy etilgan. Kreditlash jarayoni o'rtacha davomiyligi (kun) ustuni banklar tomonidan kredit berish jarayonining tezligini ko'rsatadi. DBS Bankda kreditlash jarayoni o'rtacha 1 kunda amalga oshiriladi, bu raqamli yechimlar va avtomatlashtirilgan tizimlar samaradorligini bildiradi. Agrobankda bu jarayon 4 kunni tashkil qiladi. Mijozlar soni o'sishi (%) raqamli innovatsiyalar bank mijozlarining faoliyatini qanday kengaytirganini ko'rsatadi. HSBC va DBS Bankda 30–35% o'sish kuzatilgan, bu ularning xizmatlari sifatini oshirish va global mijozlar bazasini kengaytirishga muvaffaq bo'lganini bildiradi.

Xizmat xarajatlarining kamayishi (%) ustuni innovatsiyalarni joriy etish orqali bankning operatsion xarajatlarini kamaytirish darajasini ko'rsatadi. DBS Bankda xarajatlar 18% ga kamaygan, Agrobankda esa 12% ga kamayish kuzatilgan. Raqobatbardoshlik ko'rsatkichi (1–10) ustuni bankning bozor raqobatbardoshligini baholaydi. DBS Bank 10 ball bilan yetakchi bo'lib, HSBC 9 ball bilan global banklar qatorida yuqori natijaga ega. Agrobank milliy sharoitda 8 ball bilan raqobatbardoshligini namoyon etadi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, innovatsiyalarni joriy etish bankning moliyaviy va operatsion samaradorligini oshiradi, mijozlar sonini ko'paytiradi va raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, milliy banklarda (Agrobank) innovatsion xizmatlar darajasi chet el banklariga nisbatan biroz past bo'lib, raqamli transformatsiya uchun qo'shimcha strategik chora-tadbirlarni talab qiladi.

O'zbekiston bank tizimida masofadan (online) xizmatlardan foydalanuvchi mijozlar soni joriy yilda sezilarli darajada oshgan, bu esa raqamli transformatsiyaning samaradorligini tasdiqlaydi. Markaziy bankning 2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, O'zbekistonda masofadan bank xizmatlaridan foydalanuvchi umumiy mijozlar soni 74,18 million kishiga yetgan, shu jumladan individual foydalanuvchilar katta ulushni tashkil etadi. Shu bilan birga, 2025-yil 1-iyul holatida masofadan bank xizmatlaridan jami 69,18 million foydalanuvchi foydalangan, shu jumladan Agrobank mijozlari — 3,92 million. 2025-yil 1-mart holatida Agrobankning masofadan bank xizmatlari foydalanuvchilari 3,01 millionga yetgan. 2025-yil 1-may holatida Agrobankning masofadan xizmatlar foydalanuvchilari soni 3,20 millionga yetgan. Ushbu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, masofadan bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni yil davomida oshgan, bu raqamli xizmatlar joriy etilishining muvaffaqiyatini bildiradi.

Agrobank ma'lumotlariga ko'ra, masofadan bank xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlar soni yil boshida (1-mart) 3,01 million bo'lgan bo'lsa, 1-iyulda 3,92 millionga va 1-oktabrda 4,28 millionga oshgan, bu bir necha oy davomida 42% gacha o'sishni ko'rsatadi. Umumiy O'zbekiston miqyosida masofadan bank xizmatlaridan foydalanuvchilar 2024-yilda ham katta o'sish ko'rsatgan: 2024-yil sentyabrda 48,4 million foydalanuvchi qayd etilgan. Agrobankning jami mijozlar safida raqamli xizmatlardan foydalanuvchilar soni yil davomida doimiy o'sish ko'rsatdi.

So'nggi yillarda "Agrobank" AJ faoliyatida raqamli transformatsiya va innovatsion rivojlanish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan. Bank mobil va internet-banking xizmatlarini kengaytirish, masofaviy xizmatlar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirmoqda. "Agrobank" aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublikasining yetakchi tijorat banklaridan biri bo'lib, asosan qishloq xo'jaligi, agro-sanoat majmuasi, kichik biznes va tadbirkorlik

⁹ <https://data.worldbank.org/>



subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga ixtisoslashgan. Bank o'z faoliyatini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi hamda Prezident va Hukumat tomonidan qabul qilingan dasturlar asosida amalga oshiradi. "Agrobank" AJning asosiy faoliyati jismoniy va yuridik shaxslarga bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan kreditlash, hisob-kitob operatsiyalari, depozitlar qabul qilish, pul o'tkazmalari, lizing, valyuta operatsiyalari va boshqa moliyaviy xizmatlarni taqdim etishdan iborat. Bank, ayniqsa, fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari, agroklastlar va qishloq hududlarida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar uchun qulay moliyaviy mahsulotlar ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratadi.

Shuningdek, "Agrobank" AJ moliyaviy inklyuziyani ta'minlash, qishloq joylarda bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda barqaror va "yashil" moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirishga ham alohida e'tibor beradi. Bank faoliyatining ushbu yo'nalishlari uning raqobatbardoshligini oshirish va milliy iqtisodiyot rivojiga munosib hissa qo'shishga xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval. "Agrobank AJ" ning innovatsion faoliyati maqsadlari¹⁰

Yo'nalish	Innovatsion maqsad	Amalga oshirish vositalari	Kutilayotgan natija
Raqamlashtirish	Bank xizmatlarini raqamli shaklga o'tkazish	Mobil banking, internet-banking, QR-to'lovlar	Mijozlar soni va qoniqishi oshadi
Agro-moliyalashtirish	Qishloq xo'jaligini innovatsion moliyalashtirish	Agro-kreditlar, subsidiyalar, lizing	Fermerlar faoliyati kengayadi
Xizmat sifati	Mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash	CRM, AI-chatbotlar	Xizmat tezligi va sifati oshadi
Operatsion samaradorlik	Ichki jarayonlarni avtomatlashtirish	ERP, core banking tizimlari	Xarajatlar qisqaradi
Risklarni boshqarish	Kredit va moliyaviy risklarni kamaytirish	Skoring tizimlari, Big Data	Bank barqarorligi ta'minlanadi
Moliyaviy inklyuziya	Qishloq hududlarida bank xizmatlarini kengaytirish	Mobil ofislar, onlayn kreditlar	Aholining moliyaviy faolligi oshadi
Innovatsion mahsulotlar	Yangi bank mahsulotlarini yaratish	Green finance, agroinsurance	Bank daromadi oshadi
Kadrlar rivoji	Xodimlar innovatsion salohiyatini oshirish	Treninglar, IT-kurslar	Kadrlar malakasi oshadi

Jadvalda innovatsion faoliyatning asosiy yo'nalishlari, har bir yo'nalish bo'yicha aniq maqsadlar, ularni amalga oshirishda qo'llaniladigan zamonaviy vositalar hamda natijada erishilishi kutilayotgan iqtisodiy va tashkiliy samaralar ko'rsatib berilgan. Xususan, bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali mijozlarga qulaylik yaratish, qishloq xo'jaligi subyektlarini innovatsion moliyalashtirish orqali real sektorni qo'llab-quvvatlash, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish orqali mijozlar bilan uzoq muddatli hamkorlikni mustahkamlash masalalari yoritilgan.

Shuningdek, jadvalda ichki jarayonlarni avtomatlashtirish orqali operatsion samaradorlikni oshirish, raqamli texnologiyalar asosida moliyaviy risklarni kamaytirish, qishloq hududlarida moliyaviy inklyuziyani ta'minlash hamda bank xodimlarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan maqsadlar o'z ifodasini topgan.

Xulosa qilib aytganda, aksiyonerlik shaklidagi banklar innovatsiyalarni faol joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va xizmat sifatini yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa barqaror iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada O'zbekiston bank sektori, xususan Agrobank misolida, innovatsiyalarning joriy etilishi va raqamli bank xizmatlarining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalar iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Masofadan bank xizmatlarini joriy etish bankning operatsion samaradorligini oshiradi, mijozlar sonini ko'paytiradi va xizmat xarajatlarini kamaytiradi. Empirik ma'lumotlarga ko'ra, Agrobank foydalanuvchilari soni 2025-yil davomida 3,01 milliondan 4,28 millionga oshgan, bu raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilganini ko'rsatadi.

Raqobatbardoshlik va mijozlar sodiqligi oshadi. Raqamli xizmatlar va innovatsiyalar joriy etilgach, bankning raqobatbardoshligi va mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasi sezilarli darajada oshgan. Milliy banklar innovatsion xizmatlarni kengaytirish orqali global banklar bilan raqobatlashishda samarali bo'lishlari mumkin.

¹⁰ Muallif ishlanmasi.



Empirik tahlil asosida olingan xulosalarga ko'ra, statistika va grafiklar shuni ko'rsatadiki, masofadan bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining o'sishi bankning iqtisodiy samaradorligiga ijobiy ta'sir qiladi. Innovatsiyalar joriy etilishi nafaqat bank faoliyatini optimallashtiradi, balki butun iqtisodiyot rivojiga ham ijobiy hissa qo'shadi.

Ushbu tadqiqot asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Raqamli xizmatlarni kengaytirish. Agrobank va boshqa milliy banklar raqamli va masofadan xizmatlarni yanada kengaytirishi, mijozlarga tez va qulay xizmat ko'rsatishni ta'minlashi zarur.
2. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Banklar yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali operatsion samaradorlikni oshirishi va xizmat sifatini yaxshilashi mumkin.
3. Mijozlar sodiqligini oshirish strategiyasi. Raqamli xizmatlar orqali mijozlar sodiqligini oshirish va yangi mijozlarni jalb qilish bo'yicha maxsus strategiyalar ishlab chiqilishi lozim.
4. Milliy va xalqaro tajribani solishtirish. Milliy banklar uchun global banklarning innovatsion tajribasini o'rganish va moslashtirish raqobatbardoshlikni oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Agrobank va boshqa milliy banklarda innovatsiyalarni tizimli joriy etish va raqamli xizmatlarni kengaytirish uzoq muddatli barqarorlik, mijozlar sodiqligi va bankning iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Central Bank of Uzbekistan. (2025). Payscale statistics: Remote banking users (Jan–Oct 2025). Retrieved from <https://cbu.uz/en/statistics/paysistem>
2. Freeman, C. (1987). Technology policy and economic performance: Lessons from Japan. Pinter.
3. Ismoilov, A., Karimov, S., & Tursunov, B. (2018). Innovation and economic growth in Uzbekistan. Journal of Economic Studies, 5(2), 45–60.
4. Lundvall, B.-Å. (1992). National systems of innovation: Towards a theory of innovation and interactive learning. Pinter.
5. OECD. (2021). Innovation in the economy: Measuring the impact. Organisation for Economic Cooperation and Development.
6. Porter, M. E. (1990). The competitive advantage of nations. Free Press.
7. Schumpeter, J. A. (1934). The theory of economic development. Harvard University Press.
8. Solow, R. M. (1957). Technical change and the aggregate production function. The Review of Economics and Statistics, 39(3), 312–320.
9. The Central Asia Monitor. (2025). Bank digital users statistics in Uzbekistan. Retrieved from <https://thecentral.asia/uz/1754>
10. UPL. (2025). Uzbekistan banking sector assets growth. Retrieved from <https://upl.uz/uz/economy/56469-news.html>
11. UzDaily. (2025). Uzbekistan banking sector problem loans share reduction. Retrieved from <https://www.uzdaily.uz/uz/ozbekiston-bank-sektorida-muammoli-kreditlar-ulushi-42-gacha-kamaydi/>
12. World Bank. (2022). Global innovation index 2022: Measuring innovation performance. World Bank Publications.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>